

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 138

2022 yil 29.08



O'quv ishlari bo'yicha prorektor

O.N.Bozorov

29.08 2022 yil

"MOLIYA"

FANI SILLABUSI

Bilim sohasi	200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi	230000 – Iqtisod
Ta'lim yo'nalishi	5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

QARSHI – 2022 yil

Ushbu fan sillabusi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli bayyonnomasi bilan ma'qullangan fan dastur asosida tuzildi.

Tuzuvchi

“Moliya” kafedrası dotsenti, i.f.n.
Z.I.Ruziyev

Taqrizchilar

QDU, “Iqtisodiyot”
kafedrası dotsenti, i.f.n. G.Erkayeva
QMII, “Moliya” kafedrası mudiri,
i.f.n., dotsent R.F.Omanov

Fanning sillabusi “Moliya” kafedrasining 2022 yil 18 avgust 1-son yig'ilishida hamda Iqtisodiyot fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 24 avgustdagi 1-son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2020 yil 29 avgustdagi 1-son yig'ilish qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet Uslubiy Komissiyasi raisi

“Moliya” kafedrası mudiri




Sh.Turdiyev


A.Qurbonov


R.Omanov

“MOLIYA” fani sillabusi

Fan (modul) kodi (FIN1322)	O‘quv yili 2022-2023	Semestr VI	ECTS krediti 6
Fan (modul) turi Majburiy fan	Ta’lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Moliya	ma’ruza 34 amaliy 38	108	180

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Moliya		
O‘qituvchi	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Ruziyev Zafar Ikramovich	955055553	
Amaliy mashg‘ulot			
Laboratoriya mashg‘uloti	-		

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda moliya, moliyaviy siyosat, moliyaviy munosabatlar, moliyaviy boshqaruv, moliya nazariyalari, moliyaviy infratuzilma, moliyaviy yangiliklar, pul oqimlari harakati, pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili, moliyaviy hisobotlar, davlat va nodavlat moliyaviy muassasalarning moliyaviy faoliyati, moliyaviy risklar, kichik biznes moliyasi, startaplarni moliyalashtirish, sug‘urta, xalqaro moliya munosabatlari va boshqa shu kabi moliyaviy tushunchalar bo‘yicha yo‘nalishga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, oliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali fanning inson hayotidagi va jamiyatdagi o‘rni hamda ahamiyatini ochib berish.

II. Fan tarkibi (ma’ruza mashg‘ulotlari)

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
VI-semestr			

1.	Moliyaning mohiyati va funksiyalari	Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Moliya va YAIM hamda MDni taqsimlash, qayta taqsimlash. Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasi. Moliyaning funksiyalari va moliya mexanizmi.	2
2.	Moliyaviy siyosat	Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari. Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanishi. Moliyaviy siyosatning moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanishi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati ekanligi. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari. Byudjet siyosati, soliq siyosati, pul siyosati, kredit siyosati, baho siyosati, investitsion siyosat, ijtimoiy-moliyaviy siyosat, boj siyosati.	2
3.	Moliyaviy tizim	Moliya tizimining ta'rif Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari.. Davlat moliyasi, mahalliy moliya, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi va ularning bo'g'inlari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar davlat moliya tizimi. Byudjet tizimi va davlat tuzilishi. Unitar va federativ davlatning byudjet tizimi.	2
4.	Moliyaviy boshqaruv	Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati, ta'rif, maqsadi va vazifalari. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (obyektlar) va boshqaruvchi (subyektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik tamoyillari, usullari va shakllari. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar.	2
5.	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish. Moliyaviy rejalashtirishning ta'rif. Moliyaviy rejalashtirishning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja.	

		Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan asosiy usullar. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy tartibga solish. Moliyaviy tartibga solishning huquqiy asoslari. Moliyaviy tartibga solishning korxona faoliyatiga ta'siri. Moliyaviy tartibga solish usullari.	
6.	Moliyaviy nazorat	Moliyaviy nazorat: mazmuni, nazorat sohalari, obyekti, predmeti, tizimi, vazifalari, tamoyillari. Moliyaviy nazoratning yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy nazorat tizimining elementlari. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning tamoyillari. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati, nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar	2
7.	Davlat byudjeti	Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati. Davlat byudjetining vujudga kelish sabablari va rivojlanish tendensiyalari. Davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni. Davlat byudjeti – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi. Davlat byudjeti yordamida ifodalanadigan moliyaviy munosabatlar. Davlat byudjeti uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlar. "Davlat byudjeti" tushunchasiga terminologik jihatdan qo'shiladigan boshqa tushunchalar. Davlat byudjeti daromadlari. Davlat byudjeti harajatlari.	2
8.	Davlat maqsadli jamg'armalari	Davlat maqsadli jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat maqsadli jamg'armalarining ta'rifi. Davlat maqsadli jamg'armalarining xususiyatlari. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etishning obyektiv zarurligi va shart-sharoitlari. Davlat maqsadli jamg'armalarining vazifalari. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etishga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etish tartibi va ularni shakllantirish metodlari.	
9.	Davlat krediti	Davlat kreditining mazmun-mohiyati va funksiyalari. Davlat kreditining subyektlar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy	

		munosabatlar majmuidan iborat ekanligi va unda davlatning qanday sifatlarda maydonga chiqishi. Davlat kreditida davlatning kafilga aylanishi. Davlat tomonidan kafolatning berilishi va markazlashtirilgan pul fondidagi o'zgarishlar. Kreditning bir turi sifatida davlat krediti klassik moliyaviy kategoriyalardan, xususan, soliqlardan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari	2
10.	Sug'urta	Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati. Sug'urta o'ziga xos pul munosabatlarining yig'indisi. Sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanish tamoyillari. Sug'urtaning funksiyalari. Sug'urta shakllari. Tijoratga asoslanmagan sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari. Tijorat sug'urtasi paydo bo'lishining bosqichlari.	
11.	Uy xo'jaliklar moliyasi	Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi. Uy xo'jaligining ta'rifi. Uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan xarakterli xususiyatlar. Uy xo'jaliklari moliyasining har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi va uning moliyaviy ahamiyati.	
12.	Xalqaro moliya	Xalqaro moliya. Xalqaro moliyaning rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. Valyuta kursining inflyatsiyani hisobga olishga ko'ra almashuv kurslari. Xorijiy investitsiyalar. Xorijiy investitsiyalar harakati.	2
		Islom moliyasi. Islom moliyasining nazariy asoslari. Islom moliyasining rivojlanish bosqichlari. Islomiy moliyaviy muassasalar. Islomiy moliyaviy xizmatlar. Islomiy moliyalashtirish. Islomiy va an'anaviy moliyalashtirish o'rtasidagi farq. Xalqaro islom moliya bozori. Islom moliyasi qonunchiligi. O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlanishi	
13.	Moliyaviy nazariyalar	Xorijiy iqtisodchilarning moliyaga oid nazariyalari. Siyosiy iqtisod klassiklari konsepsiyalarining asosiy mazmuni va	

		ularning moliyaviy jihatlari. Soliqqa tortishni maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilishning A.Smit tomonidan ilgari surilgan to‘rt asosiy tamoyillari va uni soliq konsepsiyasining maqsadlari. J.S.Mill “Xizmatlarning soliq nazariyasi”ning asosiy g‘oyasi. Yangi tarixiy maktab konsepsiyalari. A.Vagner tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish tamoyillari va ularning mazmuni. Moliyaviy muammolarning markschilar asarlarida talqini. Foydalilikning cheklanganligi nazariyasining moliyaviy jihatlari. J.M.Keyns moliyaviy konsepsiyasining asosiy g‘oyasi	2
14.	Zamonaviy moliya: mazmun-mohiyati, o‘rganishning obyektiv zarurligi va ahamiyati	Zamonaviy moliyaning mazmun-mohiyati. Zamonaviy moliyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy nazariyaning konsepsiyalari va modellari. Moliyaviy nazariya tayangan doktrina. Zamonaviy moliyani o‘rganishning obyektiv zarurligi, sabablari va ahamiyati. Shaxsiy pul mablag‘larini samarali boshqarish va moliya.	2
15.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar	Moliyaviy qaror. Uning o‘ziga xos xususiyatlari. Uy xo‘jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar va ularning asosiy tiplari: pul mablag‘larini iste‘mol qilish va jamg‘arish to‘g‘risidagi qarorlar, investitsion qarorlar, moliyalashtirish xususidagi qarorlar, riskiy boshqaruv haqidagi qarorlar. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar.	
16.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim va moliyaviy oqimlar	Moliyaviy tizim funksiyalari. Iqtisodiy resurslarning vaqt bo‘ylab, davlat chegarasi orqali va iqtisodiyotning bir tarmog‘idan boshqasiga o‘tish (joyini o‘zgartirish) usulini ta‘minlash. Riskni boshqarish (riskiy boshqaruv) usullarini ta‘minlash. Savdoga imkon yaratadigan hisob-kitobni amalga oshirish va kliring usullarini ta‘minlash. Moliyaviy resurslarni birlashtirish va turli korxonalarda egalikning bo‘linishi mexanizmini ta‘minlash.	2
17.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar	Moliyaviy yangiliklar va bozorning “ko‘rinmas qo‘li”. Moliyaviy yangiliklarning tadbirkorlar va firmalarning harakatlari natijasida yuzaga kelishi. Innovatsiyalar va	

		texnologiyalarning rivojlanishi. Moliyaviy bozorlar. Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko‘rinishlari: pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori. Moliyaviy aktivlarning asosiy turlari: qarz majburiyatlari, aksiyalar, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar. Davlat qimmat qog‘ozlarini fond bozorida joylashuvi.	
18.	Moliyaviy bozor stavkalari	Foiz stavkalari va ularning turlari. Foiz stavkasining darajasiga ta’sir etuvchi omillar. Riskli aktivlarning daromadlik stavkalari va ularning o‘lchash tartibi. Kapital daromadliligi. Qo‘yilgan kapitalning umumiy daromadliligi. Bozoriy indekslar va indekslashtirish strategiyasi. Fond indekslari. Indeksatsiyalash. Inflyatsiya va real foiz stavkalari. Nominal va real narx.	
19.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy vositachilar	Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi. Banklar. Ularning asosiy funksiyalari. Banklarning turlari. Universal banklar va tijorat banklari. Ixtisoslashtirilgan banklar. Depozit-jamg‘arma tashkilotlari. Jamg‘arma banklari, ssuda-jamg‘arma assotsiatsiyalari va kredit uyushmalari. Sug‘urta kompaniyalari. Ularning asosiy funksiyalari. Sug‘urta polislari. Sug‘urta turlari. Sug‘urta mukofotlari. Pensiya fondlari. Pensiyani rejalashtirish dasturlari. Pensiya dasturlarining turlari.	2
20.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tizimni tartibga solish	Moliyaviy infratuzilma va uning tarkibi. Buxgalteriya hisobi va sud ishlarini hal etish jarayonlari. Moliyaviy instrumentlar savdosiga ko‘maklashuvchi hisob-kliring tashkilotlar. Moliyaviy tizim qatnashchilarining o‘zaro munosabatlarini nazorat qiluvchi idoralar. Qimmatli qog‘ozlar savdosi qoidalari. Buxgalteriya hisobi tizimlari	2
21.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tashkilotlar	Davlat moliyaviy muassasalari. Nodavlat moliyaviy muassasalar. Markaziy banklar va ularning asosiy funksiyalari. Avtonomlik (mustaqillik). Markaziy banklar va to‘lov tizimi. Ixtisoslash(tiril)gan moliyaviy vositachilar. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalari. Xalqaro hisob-kitoblar banki. Jahon banki. Xalqaro valyuta fondi.	

22.	Moliyaviy hisobot: mazmuni, funksiyalari va turlari	Moliyaviy hisobotning mazmuni. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda ularning oʻrni va roli. Moliyaviy hisobot funksiyalari. Moliyaviy hisobot turlari: balans, moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobot, pul oqimlari toʻgʻrisida hisobot. Moliyaviy hisobotga tushuntirish.	2
23.	Moliyaviy hisobotlardagi farqlanuvchi holatlar	Bozor va balans bahosi (qiymati) oʻrtasidagi farq. Aksiyalarning bozor qiymati (bahosi)ning va ularning balans qiymati (bahosi)ga mos kelmasligining asosiy sabablari. Nomoddiy aktivlar. Gudvil yoki firmaning ishbilarmon sifatida obroʻsi. Joriy narxlar asosida kayta baholash. Foydaning buxgalteriya va iqtisodiy mezonlari. Bozor va balans bahosi (qiymati) oʻrtasidagi farqning foyda toʻgʻrisidagi tasavvurga ham oʻz taʼsirini koʻrsatishi.	
24.	Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish	Moliyaviy koeffitsiyentlar. Moliyaviy koeffitsiyentlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklar. Rentabellik koʻrsatkichlari. Aktivlarning aylanuvchanligi koʻrsatkichlari. Oʻz mablagʻi yoki qarz olingan mablagʻlardan moliyalashtirish yoki moliyaviy “dastak”. Moliyaviy leverij koʻrsatkichlari. Likvidlik koʻrsatkichlari. Bozor qiymati (bahosi) koʻrsatkichlari. Moliyaviy koeffitsiyentlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqliklar.	2
25.	Moliyaviy hisobotlar va moliyaviy rejalashtirish	Oʻsib borayotgan biznes: tashqi moliyalashtirishga boʻlgan ehtiyoj. Firmaning barqaror oʻsishi koeffitsiyenti. Barqaror oʻsish tenglamasini keltirib chiqarish. Aylanma kapitalni boshqarish. Likvidlik va kassa rejasini bajarish.	
26.	Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili	Murakkab foizlar. Boʻlajak qiymatni hisoblash. Moliyaviy kalkulyator. Turli foiz stavkalari boʻyicha reinvestitsiya qilish. Qarzni uzish (qaytarish). Pulning keltirilgan (aylantirilgan) qiymati va diskontlash. Pul oqimlarini diskontlash asosida investitsiyalash. Koʻp sonli pul oqimlari. Bir necha pul oqimlarining boʻlajak va keltirilgan (aylantirilgan) qiymati. Annuitet va uning boʻlajak qiymati. Annuitetning keltirilgan (aylantirilgan) qiymati.	1

27.	Inson hayotida moliyaviy rejalashtirish	Umrbod sug'urta shartnomasi. Sof keltirilgan (aylantirilgan) qiymatni hisoblash. Inflyatsiya va pul oqimlarini diskontlash asosida tahlil qilish. Inflyatsiya va bo'lajak qiymat. Inflyatsiya va investitsion qarorlar. Soliqlar va investitsion qarorlar. Keltirgan daromadi soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.	1
28.	Zamonaviy (amaliy) moliya va risklar	Riskning mazmun-mohiyati. Riskiy boshkaruv. Riskka moyillik. Risk va iqtisodiy (moliyaviy) qarorlar. Uy xo'jaliklari duch keladigan risklarning turlari. Korxonalar duch keladigan risklarning turlari. Riskiy boshkaruvda hukumatning roli. Riskni boshkarish jarayoni: riskni aniqlash; riskni baxolash; riskiy boshkaruv usulini tanlash; tanlangan usullarni amalga oshirish; natijalarni baxolash. Riskni "o'tkazish" variantlari: xejirlashtirish; sugurtalash; diversifikatsiya.	2
Jami semestr bo'yicha			34

III. Amaliy mashg'ulotlar

№	mavzular	soat
1.	Moliyaning mohiyati va funksiyalari	2
2.	Moliyaviy siyosat	2
3.	Moliyaviy tizim	2
4.	Moliyaviy boshqaruv	2
5.	Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish	2
6.	Moliyaviy nazorat	2
7.	Davlat byudjeti	2
8.	Davlat maqsadli jamg'armalari	
9.	Davlat krediti	2
10.	Sug'urta	
11.	Uy xo'jaliklar moliyasi	2
12.	Xalqaro moliya	
13.	Moliyaviy nazariyalar	2
14.	Zamonaviy moliya: mazmun-mohiyati, o'rganishning obyektiv zarurligi va ahamiyati	2
15.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar	2
16.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim va moliyaviy oqimlar	2
17.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar	
18.	Moliyaviy bozor stavkalari	2
19.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy vositachilar	

20.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tizimni tartibga solish	2
21.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tashkilotlar	
22.	Moliyaviy hisobot: mazmuni, funksiyalari va turlari	2
23.	Moliyaviy hisobotlardagi farqlanuvchi holatlar	
24.	Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish	2
25.	Moliyaviy hisobotlar va moliyaviy rejalashtirish	
26.	Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili	2
27.	Inson hayotida moliyaviy rejalashtirish	
28.	Zamonaviy (amaliy) moliya va risklar	2
Jami semestr bo'yicha		38

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1-MODUL. MOLIYA: NAZARIY ASOSLAR

1. O'zbekiston Respublikasining moliya tizimi.
2. Moliyani boshqarishning mohiyati, zarurligi va ahamiyati.

3. Moliyani boshqarish organlari, ularning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va vakolatlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, uning moliyani boshqarishdagi vazifalari, huquq va majburiyatlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi, uning moliyani boshqarishdagi vazifalari, huquq va majburiyatlari.
6. Moliyaviy nazoratning mohiyati, zarurligi tashkiliy shakllari.
7. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari.
8. Umumdavlat nazorat organlari va ularning moliyaviy nazoratni tashkil etishi.
9. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy resurslari, ularning manbalari, ishlatish yo‘nalishlari.
10. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimini isloh qilishning dolzarb muammolari.
11. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet siyosatining xususiyatlari va vazifalari.
12. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorining shakllanishi va rivojlanishi.
13. Bozor islohotlari sharoitida davlat ijtimoiy siyosatining moliyaviy muammolari.
14. Moliyaning zamonaviy konsepsiyalari va ularning hozirgi zamon xususiyatlari.

2-MODUL. MOLIYA: AMALIY JIHATLAR

1. Moliyaviy bozorning mohiyati, zarurligi, asosiy vazifalari va turlari.
2. Moliyaviy bozor va uning moliyaviy resurslardan samaralifoydalanishni ta’minlashdagi ahamiyati.
3. Moliya tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.
4. Uzoq muddatli moliyalashtirishning mohiyati va manbalari.
5. Qisqa muddatli moliyalashtirishda pul okimining o‘rni va ahamiyati.
6. Moliyaviy oqimlar va ularni boshqarish.
7. Foiz stavkasiga hisob-kitob pul birligining ta’siri.
8. Moliyaviy vositachilar va ularning turlari.
9. Mintaqaviy va butun dunyoviy moliyaviy tashkilotlar faoliyati.
10. Moliyaviy koeffitsiyentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar.
11. Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontlitahlili.
12. Sof joriy qiymat qoidasining investitsion qarorlar qabul qilishdagi o‘rni va ahamiyati.
13. Inson hayotida moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati.
14. Moliyaviy hisobotlar va ularning korxona faoliyatini baholashda tutgan o‘rni.
15. Moliyaviy koeffitsientlar asosida tahlil samaradorligini oshirish.
16. Diversifikatsiya - riskni kamaytirish yo‘nalishi sifatida.
17. Hedjirlash – moliyaviy risklarni pasaytirish usuli sifatida.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan ilmiy loyiha, xulosalash, darajali testlar, glossariy, tarqatma materiallar, taqdimot tayyorlash xamda ilmiy tezis va maqola yozish, shuningdek, mustaqil ta’lim mavzusi yuzasidan “Keys-Study”larni guruhlariga bo‘lingan holda bajarish tavsiya etiladi.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- moliyaning mohiyati va vazifalari, moliyaviy tizim, moliyaviy siyosat, uy xo‘jaliklar moliyasi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va artibga solish, moliyaviy nazorat, xalqaro moliya munosabatlari, davlat byudjeti, davlat krediti, sug‘urta munosabatlari,
 - moliyaviy nazariyalar haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;
 - moliyaviy qarorlar, moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar moliyaviy risklar, kichik biznes moliyasi, startaplarni moliyalashtirish, moliyaviy vositachilar, moliyaviy hisobot: mazmuni, vazifalari va turlari, moliyaviy muassasalarda moliyaviy faoliyat jarayoni, moliya va investitsion portfelni shakllantirish, pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili, inson hayotida moliyaviy rejalashtirishni bilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- talaba amaliyotda moliyaviy natijalarni tahlil qilish usullarini qo‘llash, oliyaviy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol “Keys-Study”lar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

VIII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Bodi Z., Merton R. Finansi. Uchebnik. Per.s angl. — M.: “Vilyams”, 2007.
2. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 20 b.
3. Malikov T. Moliya. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. -274 b.
4. Malikov T. Byudjet-soliq siyosati. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 404 b.
5. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. - 576 b.
6. Markina YE.V. Finansi. Uchebnik.- M.: “KnoRus”, 2020.
7. Sultonov SH., Chinqulov Q., G‘ofurova U., Safarova N. Biznes moliyasi. O‘quv qo‘llanma.– T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 358 bet.

8. Fozilchayev SH., Xidirov N. Moliyaviy risklar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 240 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

9. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 472-son Qonuni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2909-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3151-sonli Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda 3016-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi NIZOM.

13. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

14. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.

15. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.

16. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48 b.

17. Bodi Z., Merton R.S., Cleeton D.L. Textbook. Financial economics. New Jersey: “Pearson Education”, 2016. – 500 p.

18. Barulin S.V. Finansi. Uchebnik. – M.: “KnoRus”, 2017. - 640 s.

19. Malikov T.S., Jalilov SH.K. Moliyaviy tizim. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2016. - 116 b.

20. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Byudjet tizimi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 544 b.

21. Neshitoy A.S. Uchebnik. – M.: “Dashkov i Ko”. 2018. - 352 s.

22. Romanovskiy M.V., Vrublevskaya O.V. Finansi. Uchebnik. — M.: “Yurayt”, 2013. — 599 s.

23. Tashmuhamedova D. Byudjet g‘azna ijrosi. O‘quv qo‘llanma. -T.: ”Iqtisod-moliya”, 2019. - 440 b.

24. Xazanovich YE., Yunusov L., Yunusov I. Mejdunarodniye finansi. Uchbenik. – M.: “KnoRus”, 2017. – 334 s.

25. SHapkin A.S., SHapkin V.A. Ekonomicheskiye i finansoviyeye riski. Otsenka, upravleniye, portfel investitsiy. Uchebnik. — M.: “Dashkov i Ko”, 2016. - 546 c.

26. Elmirzayev S. Korporativ moliya. O‘quv qo‘llanma.–T: “Iqtisod-moliya”, 2015. - 272 b.

27. Abduraxmonov I. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – 416 b.

28. G‘aybullayev O., O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Baktria press”, 2016. – 168 b.

Axborot manbalari

29. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.
30. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
31. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti.
32. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
33. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti.
34. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
35. www.xarid.uz - Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali
36. www.openbudget.uz - O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portali

